

Yangi davrni boshlab bergen tarixiy tashrif



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQShga tashrifini mamlakatimiz va xorijiy davlatlar ekspertlari shunday baholamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariga tashrifi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi yurtdoshlarimizga cheksiz g'urur-iftixor bag'ishladi. Bu mazkur tashrif anchadan buyon kutilgani, Prezidentimizning nutqi odamlarning qalbidan, tafakkuridan chuqur joy olganidan dalolat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 193 mamlakatni birlashtirgan eng yirik xalqaro tuzilma. Bosh Assambleya uning asosiy organi. Bosh Assambleya sessiyasida dunyo yetakchilari yig'iladi, ishtirokchilar va tadbirlar ko'pligidan har bir soniya hisobli bo'ladi. Shu bois uning kun tartibidan eng muhim, xalqaro ahamiyatga molik masalalar o'rinn oladi. Bosh Assambleyaning 72-sessiyasi kun tartibiga 170 dan ortiq masala kiritildi.

Prezidentimizning nutqi mazmundorligi va ahamiyati bilan alohida ajralib turdi. Qisqa bo'lishiga qaramay, nutq zamonamizning eng dolzarb mavzularini qamrab oldi: O'zbekistondagi islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, yoshlar masalasi, diniy bag'rikenglik, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya va hokazo.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, inson huquqlarini himoya qilish faollashgani, xalqaro aloqalar uchun keng erkinlik yaratilgani, mamlakatimizning yangi qiyofasi shakllantirilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratayotgani, o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdori ekanini qayd etdi. Shavkat Mirziyoyev xorijga chiqish vizalarini "umrini o'tab bo'lgan o'tmish qoldiqlari" deb atadi.

Prezidentimiz aytgan "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun", "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" degan shiorlar barchaning tiliga tushdi. BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilishi bo'yicha takliflari barchada katta qiziqish uyg'otdi.

Sessiya ishtirokchilari Shavkat Mirziyoyevning nutqini diqqat bilan tingladi. BMT kanallari

orgali bevosita kuzatib bordi. Bosh qarorgohdagi media markazda jurnalistlar o'zlariga ko'p narsalarni qayd qilib bordi. Ayniqsa, Prezidentimiz Orol dengizi aks ettirilgan xaritani ko'rsatganda hamma o'yga toldi...



AQSH_2643.jpg Shavkat Mirziyoyev butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblashini ta'kidladi. Buyuk allomalarimiz, xususan, Imom Buxoriyning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotganini ma'lum qildi.

Nutq yakunlanganda qarsaklar ancha paytgacha tinmadi. Sessiya raisi, davlat rahbarlari Prezidentimizni tabrikladi, o'z taassurotlarini bildirishga oshiqdi.

Masalan, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'on hali hech bir davlat rahbari BMT minbaridan turib islom dini qadriyatlarini bu qadar jasorat bilan himoya qilmagani, hech qachon Imom Buxoriy nomini tilga olmaganini ta'kidladi.

Xalqaro siyosiy doiralarda, ommaviy axborot vositalarida bu tarixiy nutqqa munosabat

bildirish davom etmoqda.

Sessiya doirasida mamlakatimiz, xalqimiz uchun yana bir ahamiyatli voqeа bo'ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosida mahobatli Registon maydonining maketi o'rnatildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

O'zbekistonning "tashrif qog'ozi" bo'l mish ushbu eksponat BMT shtab-kvartirasining eng gavjum joylaridan biriga, BMT Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleya zallari o'rtasidagi foyyega o'rnatilganida o'ziga xos chuqur ramziy ma'no bor, dedi davlatimiz rahbari. Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan Samarqandda ilm-fan, madaniyat, savdo, me'morlik, hunarmandlik azaldan rivojlangan, turli o'lkalardan kelgan insonlar ahil-iniq yashagan. Registon esa ana shunday qadimiy va umumbashariy shaharning betakror ramziga aylangan.

Registon maydonining maketi yurtimizning qo'li gul usta hunarmandlari tomonidan yasalgan bo'lib, qimmatbaho metall va go'zal milliy naqshlar bilan bezatilgan. Endi Birlashgan Millatlar Tashkilotida ishlaydigan, u yerdagi tadbirlarda qatnashadigan har bir insonning nigohi azaldan taraqqiyot va madaniyat maskani bo'lgan "O'zbekistonning bir bo'lagi"ga tushadi.

Prezidentimiz aksariyat davlatlar rahbarlari singari faqat BMT sessiyasida ishtirok etib qaytmadi. Har doimgidek vaqtidan o'ta unumli foydalandi. Qator davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, ishbilarmonlar bilan uchrashdi.

O'zbekiston BMTga 1992-yil 2-mart kuni a'zo bo'lgan. Bugun mamlakatimizda uning qator tuzilmalari – Juhon sog'lijni saqlash tashkiloti, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Bolalar jamg'armasi, Aholishunoslik jamg'armasi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha boshqarmasi, Taraqqiyot dasturi va boshqa tuzilmalarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatayotir.

Joriy yil iyun oyida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O'zbekistonga tashrif buyurdi.

Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan muloqot o'tkazdi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng miyosli yangilanishlar to'g'risida so'zlab berdi.

Antoniu Guterrish Prezidentimizning Bosh Assambleyaning 72-sessiyasidagi nutqi nihoyatda mazmundor bo'lgani, unda bildirilgan tashabbuslar muhim va o'z vaqtida ilgari surilganini ta'kidladi. Ushbu tashabbuslarni xalqaro maydonda qo'llab-quvvatlashini qayd etdi.

Bosh kotib O'zbekiston tomonidan mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, Afg'onistonni qayta tiklashga ko'maklashish bo'yicha ko'rileyotgan amaliy chora-tadbirlarni yuqori baholadi. Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyani ilgari surish, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik falokat oqibatlarini yumshatishga xalqaro hamjamiyat diqqat-e'tiborini qaratishini bildirdi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari bo'yicha atroflicha fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn, Xalqaro valyuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagard, Jahon banki prezidenti Jim Yong Kim bilan uchrashdi. Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev, Gruziya Bosh vaziri Georgiy Kvirikashvili bilan mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha muzokaralar o'tkazdi.

Uchrashuvlar belgilangan vaqtdan ko'ra ko'proq davom etdi. Bu ko'rilgan masalalar ko'pligi, muzokaralar mazmunan boy bo'lganidan dalolat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQShning yetakchi kompaniyalari rahbarlarini qabul qildi. Uchrashuvda Amerika – O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, "Jeneral Elektrik" kompaniyasi prezidenti Ron Pollett, "Xanivell" kompaniyasi bo'linmasi prezidenti va bosh direktori Rajiv Gautam, "SiEnEych Industrial" kompaniyasi vitse-prezidenti Stiven Naderni, "Dir end Kompani" kompaniyasi prezidenti Jeyms Fild ishtirok etdi. Mamlakatimizda valyuta sohasida bozor mexanizmlari joriy etilgani, savdodagi turli to'siqlar olib tashlangani, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilanayotgani ta'kidlandi.

O'zbekiston – AQSh ishbilarmon doiralari o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash masalalari muhokama etildi. O'zaro manfaatli yo'nalishlar taklif qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashrifi doirasida 20-sentabr kuni Nyu-Yorkda O'zbekiston – AQSh biznes forumi bo'lib o'tdi. Unda Amerika Qo'shma Shtatlarining 100 dan ortiq yetakchi kompaniyasi rahbarlari ishtirok etdi.



Forum ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan aniq investitsiya va savdo loyihalarini muhokama qildi, ularni amalga oshirish bo'yicha qo'shma tadbirlarni belgilab oldi. Tadbir yakunida uzoq muddatga mo'ljallangan 2,6 milliard dollarlik hujjatlar imzolandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlarida istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz bilan uchrashdi.

Prezidentimiz 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining ahamiyati haqida so'z yuritdi. Sud-huquq, moliya, kichik biznes, turizm, tibbiyot sohalaridagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lum qildi.

Mamlakatimizda ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati, O'zbekiston yoshlar ittifoqining yoshlar huquq va manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyati haqida so'z bordi.

Davlatimiz rahbari vatandoshlarimizni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldor bo'lish, zamonaviy bilim va tajribalarini yurtimiz rivojiga yo'naltirishga da'vat etdi.

Ayni paytda sizlarning va siz kabi chet ellarda yurgen minglab yurtdoshlarimizning kuchg'ayrat va salohiyatidan mamlakatimiz taraqqiyoti uchun to'laqonli foydalanilmoqda, deb ayta olmaymiz. Sizlarning qalbingizda, yuragingizda yurtimizda kechayotgan jarayonlarga o'z hissasini qo'shish istagi ham, buning uchun zarur salohiyat ham bor, bizning bu borada ham qiladigan ishlarimiz ko'p, dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli o'zgarishlarda yuqori natijaga erishish uchun yangi yondashuvlar talab etiladi. Men bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan va amalga oshirilayotgan islohotlarimiz maqsadini chuqur anglaydigan kadrlar bilan ishlashga tayyor ekanimni ta'kidlab aytmoqchiman.

Mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shish istagida bo'lgan chet eldag'i barcha vatandoshlarimizni O'zbekistonga taklif etaman, dedi davlatimiz rahbari. Men ularni qo'llab-quvvatlashga va har tomonlama rag'batlantirishga tayyorman. Hammamiz jonajon Vatanimiz ravnaqi yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib birlashsak, oldimizga qo'ygan har qanday yuksak marraga albatta yetishimizga ishonaman.

Uchrashuv qatnashchilari Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirishga xizmat qilishini qayd etdi. Mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shishga tayyor ekanliklarini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp tomonidan uyushtirilgan rasmiy qabul marosimida ishtirok etdi.

Prezidentimizning AQShga tashrifi tom ma'noda tarixiy voqeа bo'ldi. Bularning barchasi O'zbekiston manfaati, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

[O'zA](#)